

REFLEKSIYA ORQALI BOLADA O'QISHGA IJOBIY MUNOSABAT VA MOTIVATSIYANI OSHIRISH USULLARI

*Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi, Ajiniyoz nomidagi Nukus
davlat pedagogika instituti doktoranti*

METHODS OF INCREASING STUDENTS' POSITIVE ATTITUDE AND MOTIVATION TOWARD LEARNING THROUGH REFLECTION

*Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi, PhD student of Nukus State
Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ И МОТИВАЦИИ К ОБУЧЕНИЮ У ДЕТЕЙ ЧЕРЕЗ РЕФЛЕКСИЮ

*Шукруллаева Сарбиназ Аллияр кызы, докторант
Нукусского государственного педагогического института
имени Аджинияза*

Annotatsiya: Ushbu maqolada refleksiya jarayonining o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy munosabat va ichki motivatsiyani shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Muallif refleksiyaning pedagogik mohiyatini, uning ta'lim jarayonidagi asosiy funksiyalarini (diagnostik, motivatsion, tuzatuvchi, rivojlantiruvchi) tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada "Men bugun nimalarni bildim?", "Yulduzli daqiqa", "Reflektiv kundalik", "Rangli refleksiya", "Muvaffaqiyat zinapoyasi" kabi refleksiv metodlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga ijobiy hissiy munosabatni shakllantirishdagi samarasi yoritilgan. Maqola zamonaviy ta'lim amaliyotida o'qituvchilarga metodik tavsiyalar beruvchi manba sifatida ahamiyatlidir.

Kalit so'zlar: refleksiya, motivatsiya, o'quvchi shaxsi, mustaqil fikrlash, ta'lim jarayoni, refleksiv metodlar, pedagogik yondashuv.

Abstract: This article highlights the importance of reflection in developing students' positive attitude and intrinsic motivation toward learning. The author analyzes the pedagogical essence of reflection and its main functions (diagnostic, motivational, corrective, and developmental) in the educational process. The paper presents effective reflective methods such as "What did I learn today?", "Star moment", "Reflective diary", "Color reflection", and "Success ladder", which help primary school students build confidence and maintain a positive emotional attitude toward learning. The article provides valuable methodological recommendations for teachers in modern educational practice.

Keywords: reflection, motivation, learner personality, independent thinking, learning process, reflective methods, pedagogical approach.



<https://orcid.org/0009-0001-2859-9209>

e-mail:

sarbinazalliyarovna@gmail.com



Аннотация: В статье рассматривается значение рефлексии в формировании у учащихся положительного отношения к обучению и внутренней мотивации. Автор анализирует педагогическую сущность рефлексии, её функции (диагностическую, мотивационную, коррекционную и развивающую) в образовательном процессе. Особое внимание уделено рефлексивным методам, таким как «Что я узнал сегодня?», «Минутка успеха», «Рефлексивный дневник», «Цветная рефлексия», «Лестница успеха», способствующим развитию позитивных эмоций и уверенности у младших школьников. Материал может быть полезен педагогам для повышения эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: рефлексия, мотивация, личность ученика, самостоятельное мышление, образовательный процесс, рефлексивные методы, педагогический подход.

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, uni mustaqil fikrlashga, o'zini anglashga va hayotga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy ta'lim jarayonining markazida o'quvchi shaxsi turadi. Ta'limning samaradorligi esa o'quvchining o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji, ya'ni motivatsiyasi hamda o'rganishga ijobiy munosabati bilan bevosita bog'liqdir.

Motivatsiya o'quv faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi sifatida o'quvchini faoliyatga jalb etadi, unga maqsadli yo'nalish beradi va muvaffaqiyatga erishish ishtiyoqini kuchaytiradi. Ammo o'quvchilarda bu motivatsiyani shakllantirish va uni barqaror saqlash oson jarayon emas. Aynan shu jarayonda refleksiya muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiya – bu shaxsning o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini va faoliyatini tahlil qilish orqali o'z-o'zini anglash, baholash hamda o'z ustida ishlash jarayonidir. U o'quvchiga nafaqat “nima o'rganayotganini”, balki “nima uchun” va “qanday o'rganayotganini” tushunish imkonini beradi. Shu orqali o'quvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o'z o'qish strategiyasini takomillashtiradi hamda o'zining o'rganishga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun refleksiya jarayoni ularning o'qishga bo'lgan hissiy munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, chunki bu davrda bola o'rganish jarayonini nafaqat aqliy, balki hissiy jihatdan ham his qiladi.

METOD. Refleksiyaning pedagogik mohiyati va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati juda katta. Refleksiya — bu shaxsning o'z fikrini, his-tuyg'ularini, xatti-harakatlarini va faoliyat natijalarini anglash hamda tahlil qilish orqali o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayonidir. Pedagogik nuqtayi nazardan refleksiya o'quvchi shaxsini o'z ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. U o'qituvchi tomonidan beriladigan tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki o'rganish jarayonining faol ishtirokchisi, tahlilchisi va tashkilotchisi sifatida shakllanadi.

Refleksiya ta'lim jarayonida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

-Motivatsion funksiyasi: o'z yutuqlarini ko'rib, o'ziga ishonch hosil qiladi va yanada yuqori natijaga erishishga intiladi;

-Tuzatuvchi funksiyasi: xatolarni tahlil qilib, ularni to'g'rilash yo'llarini topadi;

-Rivojlantiruvchi funksiyasi: mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va o'zini tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Refleksiya o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-o'z o'qish jarayonini anglash va baholash, o'qishning mohiyatini tushunish;

-o'z yutuqlari va kamchiliklarini aniqlash, ularni tahlil qilish;

-muvaffaqiyatsizlik sabablarini o'z tahlili orqali topish va ularni yengish yo'lini aniqlash;

-o'z ustida ishlash rejasini tuzish, ya'ni shaxsiy rivojlanish yo'lini belgilash. Bu jarayon natijasida o'quvchi o'qishni faqat tashqi nazorat obyekti sifatida emas, balki o'z shaxsiy o'sish jarayoni sifatida qabul qila boshlaydi. Shuningdek, refleksiya o'qituvchi uchun ham muhim tahlil

vositasi hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarning refleksiv fikrlarini tahlil qilib, darsning qaysi bosqichlari samarali, qaysilari esa qayta ko'rib chiqilishi zarurligini aniqlaydi. Shu tariqa refleksiya ikki tomonlama jarayon bo'lib, "o'quvchi — o'qituvchi" hamkorligi asosida ta'lim sifatini oshiradi. Demak, refleksiya ta'lim jarayonida nafaqat bilimni mustahkamlovchi, balki shaxsni rivojlantiruvchi kuchli pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

MUHOKAMA. Ta'lim jarayonida motivatsiya — o'quvchining o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoji, qiziqishi va intilishidir. Agar o'quvchida o'qishga nisbatan ichki turtki (ichki motiv) kuchli bo'lsa, u o'rganish jarayonida faolroq, ijodkorroq va qat'iyatliroq bo'ladi. Aksincha, motivatsiya sust bo'lsa, o'quvchi faqat tashqi rag'bat (baho, mukofot, maqtov) uchun harakat qiladi, bu esa uzoq muddatli o'rganishga turtki bo'la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan refleksiya o'quvchining o'qishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashda muhim omil sifatida qaraladi. Chunki refleksiya jarayoni o'quvchini o'z o'qish faoliyatining faol subyekti sifatida anglashga, o'z yutuqlarini baholashga va o'z o'sish dinamikasini his etishga undaydi. Bu esa o'z-o'zidan o'qishga bo'lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi.

Refleksiya va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

-O'z-o'zini anglash orqali ichki motivatsiya shakllanadi. Refleksiya o'quvchiga "Men nimalarni bilaman?", "Men nimani o'rganmoqchiman?", "Men bunga qanday erishdim?" kabi savollar orqali o'z o'qish jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Bola o'z harakatlarining ma'nosini tushungan sari o'qishga bo'lgan ichki qiziqishi ortadi.

-Refleksiya o'qish jarayonida ijobiy hissiy muhit yaratadi. O'quvchi o'z yutuqlarini tahlil qilganda va o'zida o'sishni ko'rganda, unda o'ziga ishonch va o'qishga nisbatan ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi.

-Refleksiya muvaffaqiyatsizlikni ijobiy qabul qilishni o'rgatadi. O'quvchining xatosi yoki kamchiligi tahlil obyekti sifatida qaraladi, jazolash

yoki tanqid sababi sifatida emas. Bola "xato — bu yangi narsani o'rganish imkoniyati" ekanligini anglab, o'qishdan qo'rqmaydi. Shu orqali u doimiy o'rganish va o'zini takomillashtirishga intiladi.

-Refleksiya tashqi rag'batdan ichki motivga o'tishni ta'minlaydi. Dastlab o'quvchi baho, maqtov yoki mukofot uchun o'qishi mumkin. Ammo refleksiya jarayonida u o'qishning shaxsiy foydasini anglay boshlaydi. Masalan, "Men o'qish orqali yangi narsalarni bilaman", "Bu menga foydali bo'ladi", degan fikrlar paydo bo'ladi. Bu esa ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

NATIJALAR. Refleksiya jarayonining motivatsion kuchi shundaki, u o'quvchida "Men o'qiy olaman, men o'rganishga qodirman", degan ichki ishonchni shakllantiradi. Bu ishonch esa o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatning eng barqaror shakli hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchining refleksiv fikrlarini tinglash orqali uning ichki holatini tushunadi, qiyinchiliklarini aniqlaydi va zarur yordamni ko'rsatadi. Demak, refleksiya — bu nafaqat o'qish jarayonini tahlil qilish vositasi, balki o'quvchining ichki motivatsiyasini shakllantiruvchi, uni o'z-o'zini rivojlantirishga undovchi kuchli psixologik-pedagogik mexanizmdir.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali refleksiv usullar keltiriladi:

1. "Men bugun nimalarni bildim?" texnikasi. Bu eng sodda, ammo samarali refleksiya shaklidir. Dars yakunida o'quvchilarga "Bugun siz nimalarni o'rgandingiz?", "Qaysi narsa sizga eng qiziqarli bo'ldi?", "Nima siz uchun qiyin bo'ldi?" kabi savollar beriladi. Bu usul o'quvchilarning o'qish jarayonini anglashiga, o'z bilimini tahlil qilishiga va darsdan ijobiy his bilan chiqishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bola o'z o'rganish faoliyatining subyekti ekanini his qiladi.

2. "Yulduzli daqiqa" usuli. Bu usul o'quvchining kichik yutuqlarini qadrlashga qaratilgan. Har bir o'quvchining darsdagi faol ishtiroki yoki ijobiy o'zgarishi e'tirof etiladi. O'qituvchi yoki sinfdoshlar tomonidan berilgan "yulduz", "tabassum", "olqish" kabi ijobiy belgilar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini

mustahkamlaydi. Bu — ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi psixologik ragʻbatdir.

3. “Reflektiv kundalik” yuritish. Bu usul oʻquvchilarning oʻz-oʻzini tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi. Oʻquvchilar darsdan keyin qisqa yozuvlar shaklida quyidagi savollarga javob yozadilar: “Bugungi dars menga nimani oʻrgatdi?” “Men nimani yaxshi bajardim?” “Nimani yaxshilashim kerak?” “Darsda menga eng yoqqan narsa nima boʻldi?” Kundalik oʻquvchining individual rivojlanish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, oʻquvchi oʻz his-tuygʻularini ifoda etishga, oʻz oʻqish natijalariga ongli munosabat bildirishga oʻrganadi.

4. “Men uchun eng muhim narsa...” texnikasi. Bu refleksiv mashq dars yakunida oʻtkaziladi. Oʻquvchilardan “Bugungi darsdan siz uchun eng foydali yoki muhim boʻlgan narsa nima?” degan savol soʻraladi. Bu usul bolani oʻrganilgan mavzudan shaxsiy maʼno topishga oʻrgatadi. Shu tariqa oʻquvchi oʻz oʻqish faoliyatining foydasini tushunadi va oʻqishga nisbatan ongli, ijobiy munosabat shakllanadi.

5. “Baholamay, tahlil qil” yondashuvi. Bu usulda oʻqituvchi oʻquvchini “yaxshi” yoki “yomon” deb baholamaydi. Aksincha, bolaning ishi tahlil qilinadi: “Bu joyni juda yaxshi bajargansan”, “Bu qismda biroz oʻzgartirish kiritish mumkin”, “Keyingi safar boshqacha usul sinab koʻr-chi?” Bunday konstruktiv fikr-mulohaza oʻquvchining oʻzini qadrlash hissini saqlab qoladi, unda oʻqishga nisbatan ijobiy hissiyot uygʻotadi va qoʻrquv yoki bosimni kamaytiradi.

6. “Muvaffaqiyat zinapoyasi” metodi. Oʻquvchilar oʻz faoliyatlarini baholash uchun “zinapoya” shaklidagi jadvaldan foydalanadilar. Har bir pogʻona muvaffaqiyat darajasini bildiradi. Bola oʻzini qaysi bosqichda deb hisoblashini belgilaydi. Shu orqali u oʻz rivojlanish darajasini koʻradi, oʻz oldiga yangi maqsadlar qoʻyadi. Bu kabi refleksiv usullar nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki oʻquvchining ichki dunyosiga taʼsir etib, oʻqishga nisbatan ijobiy psixologik muhit yaratadi. Oʻquvchi oʻzining har bir kichik muvaffaqiyatini his etadi, bu esa “Men

oʻrganishga qodirman” degan ichki ishonchni shakllantiradi. Refleksiv taʼlim jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, oʻqituvchining kasbiy mahorati, shaxsiy yondashuvi va pedagogik madaniyatiga bogʻliq. Chunki oʻqituvchi taʼlim jarayonining tashkiliy markazi, oʻquvchi esa uning faol hamkori hisoblanadi.

Refleksiv muhit — bu oʻquvchi oʻz fikrini erkin ifoda eta oladigan, oʻzini qadrlangan, tushunilgan va himoyalangan his qiladigan psixologik xavfsiz taʼlim muhitidir. Bunday muhitni yaratish oʻqituvchidan yuqori darajada pedagogik mahorat, empatiya va kommunikativ madaniyatni talab qiladi.

Oʻqituvchi refleksiv muhitni yaratishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishi lozim:

1. Ishtirokchilik va hamkorlik tamoyili. Refleksiya jarayonida har bir oʻquvchi faol ishtirok etishi kerak. Oʻqituvchi darsni shunday tashkil etadiki, unda oʻquvchi oʻz fikrini erkin aytadi, tajriba almashadi va boshqalarni tinglaydi. Bu esa ularning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

2. Individual yondashuv tamoyili. Har bir bola oʻzining oʻqish surʼati, qiziqishlari va ehtiyojlariga ega. Oʻqituvchi refleksiya jarayonida bu farqlarni inobatga olgan holda har bir oʻquvchi bilan individual muloqot olib boradi. Masalan, baʼzi bolalar ogʻzaki ifoda qilishni, boshqalari esa yozma refleksiyani afzal koʻradi. Shuning uchun refleksiya shakllari turlicha — suhbat, savol-javob, yozma tahlil, chizmachalik yoki rangli belgilar orqali tashkil etilishi mumkin.

3. Ijobiy psixologik muhit tamoyili. Refleksiya samarali kechishi uchun sinfda ochiqlik, ishonch va oʻzaro hurmat muhitini yaratish zarur. Oʻqituvchi oʻquvchilar fikrini baholamasdan, balki ularni diqqat bilan tinglaydi. Bola oʻz fikrini erkin ayta olganida, u oʻzini qadrlangan his qiladi. Bu esa refleksiya jarayonining tabiiy kechishini taʼminlaydi.

4. Refleksiv savollar va muhokama. Oʻqituvchi dars jarayonida refleksiv fikrlashni faollashtiruvchi savollardan foydalanishi lozim. Masalan:

“Bugun darsda sizni eng ko‘p hayratlantirgan narsa nima bo‘ldi?”

“Qaysi topshiriqni bajarish siz uchun eng oson yoki qiyin bo‘ldi?”

“Agar bugungi darsni qayta o‘tkazish imkoningiz bo‘lsa, nimani o‘zgartirgan bo‘lardingiz?” Bunday savollar o‘quvchini chuqur fikrlashga, o‘z his-tuyg‘ularini anglashga va o‘z faoliyatini baholashga o‘rgatadi.

XULOSA qilib aytganda refleksiya zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini, ichki motivatsiyasini va shaxsiy o‘lishini ta‘minlaydigan muhim pedagogik mexanizmdir. Refleksiya yordamida o‘quvchi o‘z faoliyatini anglaydi, o‘z yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qiladi, xatolarini to‘g‘rilash yo‘lini topadi hamda o‘z o‘rganish strategiyasini ongli ravishda shakllantiradi.

Shunday qilib, refleksiya — bu ta‘limning faqat natijaviy emas, shaxsga yo‘naltirilgan, rivojlantiruvchi va motivatsion asosidir. U o‘quvchini o‘z o‘rganish jarayonining egasiga aylantiradi, o‘qituvchini esa o‘quvchi shaxsini chuqur tushunadigan, unga yo‘l ko‘rsatuvchi hamkor sifatida belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-son qarori (2018-yil 6-iyun). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
- 2.Abduqodirova B. (2020). Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta‘lim metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
- 3.G‘oziev, E. (2019). Psixologiya asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
- 4.Xodjieva, N. (2021). Zamonaviy ta‘limda refleksiya jarayonining ahamiyati. Ta‘lim va innovatsiyalar ilmiy jurnali, №3, 45–52-betlar.
- 5.Karimova, Z. (2022). Motivatsiya va o‘quv faoliyati: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
- 6.Yusupova, M. (2020). Refleksiv yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish. Pedagogik izlanishlar jurnali, №2, 60–67-betlar.
- 7.Hasanboeva, O., Jabborova, M. (2023). Refleksiya orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘llari. Pedagogik mahurat jurnali, №1, 30–37-betlar.

